JIZZAX VILOYATI DO‘STLIK TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 22 - iyun 115-3-47-Q/23 Do‘stlik tuman hokimligi

Yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 25-moddalari (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 320-modda), “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 15-son, 197-modda), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3127-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 28-son, 645-modda) hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2022-y.) ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Do'stlik tuman ichki ishlar bo'limining 2023 yil 11-apreldagi 28/1029-sonli xatlari qanoatlantirilsin.

2. Tuman “Yo’llardan foydalanish” unitar korxonasi (Z.Kulbekov)ga, Sanoatchilar MFY hududidan o’tgan 4P35-“Jizzax sh- Do’stlik sh- Gagarin sh” avtomobil yo’li va 4P198-“Do’stlik sh- Arnasoy sh – 4P197” avtomobil yo’llariga **1-ilova**ga muvofiq yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

4. Tuman IIB YHXB (Z.Anarboev) mazkur yo‘l belgilari o‘rnatilishi hamda tuman hududida transport vositalari harakati tartibga solinishi nazorat qilib borilsin.

5. Ushbu qaror “Do‘stlik hayoti” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy

veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Tinchlikov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **SH.Darvishev**

Do‘stlik tuman hokimining
2023-yil 22-iyundagi
115-3-47-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tuman “Yo’llardan foydalanish” unitar korxonasi balansidagi avtomobil yo‘liga o‘rnatiladigan yo‘l belgilari bo‘yicha

MA’LUMOT

T/R	Ko‘cha nomi	Joylashtirish joyi	Soni	Yo‘l belgisi nomi
1.	4P35-“Jizzax sh-Do’stlik sh- Gagarin sh” avtomobil yo’li	59PK950 +60PK150, o’ng tomon	1	3.27.To’xtash taqiqlangan
2.	4P35-“Jizzax sh-Do’stlik sh- Gagarin sh” avtomobil yo’li	59PK950 +60PK150, chap tomon	1	3.27.To’xtash taqiqlangan
3.	4P198-“Do’stlik sh-Arnasoy sh – 4P197” avtomobil yo’li	PK0 +PK200, o’ng tomon	1	3.27.To’xtash taqiqlangan
4.	4P198-“Do’stlik sh-Arnasoy sh – 4P197” avtomobil yo’li	1PK0 +1PK200, o’ng tomon	1	3.27.To’xtash taqiqlangan
JAMI:			**4**	